

*“O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashining
2023 yil “30” noyabrdagi 18-2023-son
bayonnomasiga ilova*

“O‘ZAVTOSANOAT” AJning
(tarmoq korxonalarining yig‘ma
ko‘rsatkichlari bilan)

2024 yil uchun
BIZNES-REJASI

Toshkent - 2023

MUNDARIJA

I. Jamiyat va tarmoq to'g'risida umumiy ma'lumot.

1.1 Jamiyat bo'yicha umumiy ma'lumot.

1.2 Jamiyatning qisqacha tarixi va joriy yilda erishilgan yutuqlari.

1.3 Jamiyatning tashkiliy va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi, tarmoq korxonalarini to'g'risida qisqacha ma'lumot.

1.4 Kadrlar siyosati, yangi ish o'rinlarni yaratish, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish.

II. Jamiyat va uning korxonalarini islox qilish.

2.1 Istiqbolli rivojlanish strategiyasi.

2.2 Isloh qilishning 2024 yil uchun rejasi.

III. Bozor va marketing rejasi.

3.1 Ichki bozor faoliyati.

3.2 Eksport bozorlaridagi faoliyati.

IV. Ko'rsatkichlar

V. Samaradorlik ko'rsatkichlari

“O‘zavtosanoat” AJning 2024 yilga mo‘ljallangan biznes-rejasi boshqaruv apparatining hamda tarmoq korxonalarining umumlashtirilgan prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha shakllantirilgan. Bunda tarmoq korxonalarining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha, jumladan ishlab chiqarish, eksport, investitsiya faoliyati, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini qisqartirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda moliya-xo‘jalik faoliyati ask ettirilgan.

I. Jamiyat va tarmoq to‘g‘risida umumiy ma’lumot

1.1 Jamiyat bo‘yicha umumiy ma’lumot

“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati.

Tarmoq: Avtomobil sanoati.

2023 yilning 1 oktyabr holatiga “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining ustav fondi 1 861,6 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligigi 100 foizlik paket aksiya bilan jamiyatning yagona aksiyadori hisoblanadi.

Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shaxri, Mirobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 13.

STIR: 201053918

Jamiyat tashkiliy tuzilmasi bo‘yicha boshqaruv xodimlarining umumiy soni – 100 birlik (ichki audit xizmatidan tashqari).

1.2 Jamiyatning qisqacha tarixi va joriy yilda erishilgan yutuqlari

1994 yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “O‘zavtosanoat” O‘zbek avtomobilsozlik korxonalarini assotsiatsiyasi tashkil etilgan, 2004 yilda “O‘zavtosanoat” assotsiatsiyasi ishlab chiqarish boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida aksiyadorlik kompaniyaga aylantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi “2017-2021 yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3028-sonli qaroriga asosan “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi tahrirlarda jamiyat deb yuritiladi) tashkiliy-huquqiy tuzilishi aksiyadorlik kompaniyasidan aksiyadorlik jamiyatiga o‘zgartirilgan.

Bugungi kunda sohada “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati doirasida birlashtirilgan va bevosita 30 mingdan ortiq ishchi o‘rniga ega 55 dan ortiq tarmoq korxonalarini va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, 200 dan ortiq chet el korxonalarini bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan. “O‘zavtosanoat” AJ o‘nlab katta va o‘rta korxonalar bilan bir qatorda Koreya respublikasi, Italiya, Germaniya, Yaponiya kabi xorijiy mamlakatlar kapitali bilan birgalikda tashkil etilgan kompaniyalarni birlashtiradi.

Nufuzli kompaniyalar bilan teng va o‘zaro manfaatli munosabatlarni o‘rnatishga asoslangan ilgari odimlash strategiyasi raqobatbardosh mahsulotlarni

dunyo standartlari darajasida ishlab chiqarishga qaratilgan.

Hozirgi kunda avtomobil sanoati respublika iqtisodiyotida jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi.

2023 yil 9 oyida erishilgan yutuqlar

2023 yil yanvar - Andijon viloyatining “Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi” maxsus sanoat zonasida MDH hududida yagona o‘ziga xos bo‘lgan zamonaviy “Kova Foundry” quyuv zavodining ochilishi bo‘lib o‘tdi.

2023 yil yanvar - UzAuto Qirg‘izistonlik hamkorlar bilan birgalikda tijorat texnikalari va yengil avtomobillar ishlab chiqarish bo‘yicha shartnoma imzoladi.

2023 yil yanvar - “Volkswagen Caddy” tez tibbiy yordam avtomashinalari Sog‘liqni saqlash vazirligiga topshirildi.

2023 yil fevral – “UzAuto Motors” zavodida Chevrolet Onix avtomobillarni ishlab chiqarilishi boshlandi.

2023 yil fevral - Chevrolet Malibu XL avtomobili sotuvi boshlandi.

2023 yil fevral - O‘zbekiston fond bozori tarixidagi aksiyalarning umumiy qiymati bo‘yicha eng yirik IPO yakunlandi.

2023 yil mart – “UzAuto Motors” kompaniyasi “Uzum Market” marketpleysining rasmiy hamkoriga aylandi.

2023 yil mart – O‘zbekistonda BYD avtomobillarining rasmiy sotuvi boshlandi.

2023 yil mart - O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan birinchi Chevrolet Onix birinchi egalari topshirilishi boshlandi.

2023 yil may - UzAuto Motors Chevrolet Tracker va Onix modellarining komplektatsiyalari qatorini to‘ldirdi.

2023 yil may - UzAuto BYD Auto bilan birgalikda O‘zbekistonda gibrid avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha “BYD Uzbekistan Factory” zavodini qurishiga start berildi.

2023 yil may - UzAuto Motors Xorazm viloyatida Chevrolet Damas va Labo avtomobillarini ishlab chiqarish hajmini yiliga 150 ming donagacha oshirmoqda.

2023 yil may - UzAuto Motors IPO ishtirokchilarga 2022-yil uchun dividendlar to‘ladi.

2023 yil iyun - UzAuto Motors ga 1 700 nafar xodim ishga qabul qilindi.

2023 yil iyun – “O‘zavtosanoat” AJ tarkibiga kirgan Toshkent shahar Turin politexnika universiteti “aerokosmik muhandisligi” ga 2023/2024-o‘quv yili uchun hujjatlar qabuli ochdi.

2023 yil iyul - “UzAuto Motors Powertrain” CSS-Prime yangi avlod dvigateli “Machining head” va “Silindr bloklari” liniyalarini ishga tushirdi.

2023 yil avgust - Prezident Chirchiqdagi “AgroTech Klaster” klasterining

faoliyatiga start berdi.

2023 yil avgust - Sogʻliqni saqlash vazirligiga 50 dona “Jizzax Auto” kompaniyasida ishlab chiqarilgan zamonaviy beshinchi avlod “Volkswagen Caddy” rusumidagi tez tibbiy yordam avtomobillarining yangi partiyasi topshirildi.

2023 yil avgust - UzAuto Motors ning navbatdagi rekordi: avgustda zavod konveyerlaridan 41 100 avtomobil chiqdi.

2023 yil avgust - BYD Mustaqillik bayramiga avtomobillarning multimedia tizimini oʻzbek tilida ishga tushurdi.

2023 yil sentyabr - Sogʻliqni saqlash vazirligiga 100 dona “Jizzax Auto” kompaniyasida ishlab chiqarilgan zamonaviy “Volkswagen Caddy” rusumidagi tez tibbiy yordam avtomobillarining yangi partiyasi topshirildi.

1.3 Jamiyatning tashkiliy va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi, tarmoq korxonalari toʻgʻrisida qisqacha maʼlumot

Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi (sxema) va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi (sxema) 1 va 2 ilovalarda taqdim etilgan.

Jamiyat faoliyatining tuzilmasi

Ishlab chiqarish yoʻnalishida

“UzAvto Motors” AJ – yengil avtomobillar.

“BYD Uzbekistan Factory” MCHJ QK – BYD elektromobillari va gibrid avtomobillari.

“SamAvto” MCHJ QK – ISUZU turdagi yuk avtomobillari va avtobuslar.

“UzAvto Motors Powertrain” AJ – kuch agregatlari.

Mahalliyashtirish korxonalari – avtokomponentlar.

Boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalari.

Yengil avtomobillarning savdosi va ularga texnik xizmat koʻrsatish yoʻnalishida

Tashqi bozorlar: MDX davlatlarida 4 ta distribyutor hamda 34 ta diler Chevrolet brendi ostida faoliyat koʻrsatmoqda.

Ichki bozorlarda “UzAvto Motors” AJning 95 ta faol dillerlik markazlari oʻz faoliyatini olib bormoqda Dillerlik markazlarining eng koʻp qismi Toshkent shahrida 21 ta, Toshkent viloyatida 13 ta hamda Fargʻona viloyatida 11 ta dillerlik markazlari joylashgan.

Jamiyat boshqarish kompaniyalari

“Avtosanoat Invest” MCHJ, “UzAutoComponents” MCHJ, “Uzauto Passenger Vehicles Management” MCHJ hamda “Uzauto Commercial Vehicles Management” MCHJ.

Kadrlar tayyorlash yo‘nalishida

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti qoshidagi Akademik litsey.

1.4 Kadrlar siyosati, yangi ish o‘rinlarni yaratish, xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish

Jamiyat rejalashtirayotgan strategik maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy mezonlaridan biri - bu mutaxassislarni tayyorlash uchun ajralmas va muntazam tizimni yaratishdir, bunda asosiy o‘rinda tizim korxonalarini muhandis-texniklar, moliyachi-iqtisodchilar va biznesni boshqarish yo‘nalishidagi malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash dolzarb o‘rin egallaydi.

Soha uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimidagi eng muhim bo‘g‘in Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti hisoblanadi va bugungi kunda Universitet tomonidan Jamiyat hamda tizim korxonalarini uchun avtomobilsozlik sanoatining o‘ziga xos muxandislik, dizayn salohiyatini yaratish va rivojlantirishda asosiy bo‘g‘inga aylangan. Bundan tashqari Jamiyat va tizim korxonalaridagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda Respublikadagi muhandislarni tayyorlovchi xalqaro va mahalliy oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

TTPUdan dual degree yo‘nalishida bugungi kunda 173 nafar hodimlar taqsim olishmoqda, bundan tashqari 150 nafardan ziyod korxonalar xodimlarini oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriat va magistratura yo‘nalishida korxonalar xisobidan o‘qitilmoqda. Bu o‘z navbatida soha bo‘yicha malakali mutaxassisning oliy ma‘lumotli bo‘lishlari ta‘minlanadi.

“O‘zavtosanoat” AJ tarkibiga kiruvchi tarmoq korxonalarida kadrlar malakasini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishi kadrlar zaxirasini yaratish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yaratish hisoblanib, bunga quyidagilar kiradi:

1. Xodimlarni tayyorlash - umumiy va maxsus bilimlar darajasini oshirish, mutaxassislik bo‘yicha amaliy ish tajribasini oshirish - 412 nafar;

2. Maxsus dasturlar bo‘yicha o‘quv markazlarida o‘qitish orqali malaka va kasbiy mahorat darajasini oshirish - 211 nafar;

2.1. Korxonalar ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda xodimlarni o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash - 867 nafar;

2.2. Dual amaliyot dasturi bo‘yicha texnikum va kollej talabalarini ishlab chiqarish sexlariga joriy etish bo‘yicha 206 nafar hamda 250 nafari zaxira hisobida suhbatdan o‘tkazilgan;

2.3. Oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan yuqori salohiyatga ega talabalarni korxonalar ishlab chiqarish jarayonlari tanishtirish, tajriba o‘tqazish, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va kadrlar zaxirasini shakllantirish 63 nafar;

Shunigdek, 5+1 moduli bo'yicha OTM ning salohiyatli talabalari uchun korxonada o'qishlarini tashkillashtirish 84 nafar.

3. Soha uchun kadrlar zaxirasini yaratish va yangilab borish.

Shu bilan birga, 2024 yilda tarmoq korxonalarida jami 2 000 yangi ish o'rinlarni yaratish rejalashtirilmoqda.

“O‘zavtosanoat” AJning boshqaruv organi to‘g‘risida ma‘lumot

№	F.I.SH	Lovozimi (ish joyi), faoliyat ko‘rsatish davri	Korxonadagi ulushi
I. Aksiyadorlar (ishtirokchi, mulkdor)			
1.	Aksiyador (ishtirokchi, mulkdor)		O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligigi – 100 foiz
II. Kuzatuv kengashi a‘zolari			
2.1	Jumanazarov Akmal Ruzikulovich	O‘zbekiston Respublikasi Energetika vaziri o‘rinbosari;	
2.2	Raxmatov Feruz Kasimovich	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mahaliy sanoat va kooperatsiyani rivojlantirish sho‘basi mudiri;	
2.3	Saidov Zafar Zoirovich	O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazir kotibiyati boshlig‘i;	
2.4	Atadjanov Murod Bekbergenovich	Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik xizmati qo‘mitasi raisi;	
2.5	Bo Inge Andersson	“UzAuto Motors” AJ bosh direktori;	
2.6	Sharik Xan	Mustaqil a‘zo;	
2.7	Andreas Edinger	Mustaqil a‘zo	
III. Ijro organi			
1.	Rozukulov Ulugbek Ubaydullayevich	“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi;	

2.	Shukurov Kobilovich	Azizbek	Boshqaruv raisining transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari;	
3.	Rafikov Vohidovich	Abduvaqqos	Mahalliyashtirish, kooperatsiya aloqalarini sanoatda kengaytirish va axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari;	
4.	Tadjiyev Ubaydullayevich	Sardor	Boshqaruv raisining sotuvni rivojlantirish va marketing bo'yicha o'rinbosari;	
5.	Turayev Razakovich	Farxod	Boshqaruv raisining ishlab chiqarish masalalari bo'yicha o'rinbosari;	
6.	Bikkulov Anvarovich	Rinat	Boshqaruv raisining kadr va rejim masalalari bo'yicha o'rinbosari	

II. Jamiyat va uning korxonalarini islox qilish

2.1 Istiqbolli rivojlanish strategiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4397 sonli "O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qaroriga muvofiq 2020 yilda "O'zavtosanoat" AJ hamda Boston Consulting Group halqaro konsalting kompaniyasi tomonidan 2030 yilgacha bo'lgan davr uchun avtomobil sanoati strategiyasi ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan strategiyaga ko'ra quyidagi ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

1. Avtomobil sanoatida faoliyat ko'rsatayotgan yoki faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan kompaniyalarga teng shart-sharoitlarni yaratish;

2. O'zbekiston Respublikasining avtomobil sanoatini boshqarish modelini isloh qilish (transformatsiya) va avtomobil sanoati tizimdagi korhonalarda davlat ishtirokini (ulushini) qisqartirish;

3. Yangi ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va O'zbekiston xududida ishlab chiqarishni tashkil etish;

4. Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish va bozorga olib chiqish;

5. Elektromobillarni ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich tayorgarlik ko'rish;

6. Ishlab chiqarish aktivlarini (korxonalarini) optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 sentyabrdagi ““O‘zbekiston-2030” Strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-sonli qarori bilan 2030 yilgacha avtomobil sanoatini rivojlantirish dasturini quyidagi maqsadlarni inobatga olgan xolda tasdiqlash belgilangan:

- Avtomobilsozlik sohasida raqobat muhitini yaratish va ishlab chiqarish hajmini 1 million donaga yetkazish, shu jumladan yiliga 300 mingta elektromobil ishlab chiqarish;

- Yengil avtomobillar, qishloq xo‘jaligi texnikasi va avtomobillarning butlovchi va zaruriy ehtiyot qismlarini mahalliyashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va bunga investorlarni keng jalb etish.

2.2 Isloh qilishning 2024 yil uchun rejasi

Avtomobil sanoatida faoliyat ko‘rsatayotgan yoki faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan kompaniyalarga teng shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika avtomobil sanoatida raqobat muhitini yanada rivojlantirish va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori loyihasi ishlab chiqib, tegishli vazirlik va idoralarga kiritish va qabul qilish choralarini ko‘rish.

Avtomobilsozlik sohasidagi korxonalar uchun biznesning teng sharoitlarini belgilaydigan va mahalliyashtirish darajasidan kelib chiqqan holda rag‘batlantirishni, “sanoat usulida yig‘ish” talablariga javob beruvchi texnologik jarayonlarni o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Shu orqali O‘zbekiston Respublikasida avtomobilsozlik sohasida faoliyat yurituvchi har qanday talabgorlar uchun teng sharoitlar yaratiladi.

2024-2025 yillarda “Chevrolet Cobalt modelini yangilash (Cobalt MCM) va ishlab chiqarish hayotini uzaytirish” evaziga ishlab chiqarish hajmini 150 ming dona avtomobilga yetkazish.

“UzAuto Motors” AJ va mahalliyashtirish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini 500 ming dona avtomobil gacha yetkazish bo‘yicha amaliy ishlarni davom ettirish.

Shuningdek, joriy modellarning maxalliyashtirish darajasini oshirish bo‘yicha boshlangan ishlarni davom ettirib, yangi modellarni butlovchi qismlarini maxalliy korxonalarda ishlab chiqarish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish va yangi butlovchi qismlarni o‘zlashtirish rejalashtirilgan. Bunda, 2024 yilda:

CSS Prime dvigatelining silindr blok qismini quyish;

Yangi avtomobil modellarining “Rear axle” butlovchi qismlarini ishlab chiqarish;

Yangi avtomobil modellarining generatorlarini ishlab chiqarish;

Bundan tashqari boshqa kompaniyalar bilan kooperatsiya evaziga:

Damas va yangi avtomobil modellari uchun shinalarni ishlab chiqarish;

Damas, Cobalt va yangi avtomobil modellari o`rindiqlik matolarini va PVX materiallarini mahalliyashtirish.

“O`zavtosanoat” AJ korxonalarini faoliyati samaradorligini oshirish, ularni moliyaviy holatini barqarorlashtirish va yanada yaxshilash.

Tizimda boshqarish modelini isloh qilish (transformatsiya) yuzasidan boshqaruv tizimini takomillashtirish, jumladan markaziy apparat hamda korxonalar tashkiliy tuzilmalarini xorijiy tajribalarni o`rgangan holda o`zgartirish bo`yicha takliflar kiritiladi. Shuningdek, korxonalarini boshqarish jarayonlariga tajribali, ixtisoslashgan va/yoki yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilish ko`zda tutilmoqda.

Operatsion samadorligini oshirish orqali xarajatlarni/tannarxni qisqartirish, bunda import mahsulotlarini muqobil yetkazib beruvchilarga o`tkazish va ishlab chiqarish hajmlarini oshirish orqali ishlab chiqarish bilan bog`liqlik o`zgarish xarajatlarni optimallashtirish yo`li orqali erishish kutilmoqda.

Xom-ashyoning muqobil yetkazib beruvchilarini izlash va “O`zavtosanoat” AJ tarmoq korxonalarining import qilinadigan xomashyoni sotib olish uchun xarajatlarni optimallashtirish.

Avtomobillar va qishloq xo`jaligi texnikalari ishlab chiqarish geografiasini kengaytirish hamda eksport hajmini oshirish maqsadida, jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan avtomobillar va texnikalarni qo`shni davlatlarda SKD va CKD texnologiyasi asosida ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish bo`yicha ishlarni davom etish.

“BYD Uzbekistan factory” MChJ QK 2024 yil II yarim yilligida “Yangi energiya manbaalarida harakatlanuvchi avtomobillarni ishlab chiqarishni tashkil etish” loyahasini ishga tushirib, yil yakuni bilan 10 ming dona BYD elektromobil va gibrid avtomobillarini ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda. Dastlab Song Plus va Chazor modellari ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.

Joriy modellarning mahalliyashtirish darajasini oshirish bo`yicha boshlangan ishlarni davom ettirib, oxiriga yetkazish, yangi modellarni butlovchi qismlarini mahalliy korxonalarda o`z vaqtida, grafiklari asosida ishlab chiqarish bo`yicha ishlarni tashkillashtirish.

Barpo etilgan Sanoat Xabida, yangi butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini joylashtirish bo`yicha ishlarni davom ettirish, loyihalarni amalga oshirish.

“UzAuto Motors” AJ huzurida “Benchmarking markaz”i faoliyatini yo`lga qo`yish bo`yicha ishlarni davom ettirish.

3 ta yirik mahalliyashtirish korxonalarida ERP resurslarini boshqarish tizimini bosqichma-bosqich ishga tushirish orqali ma`lumoi yig`ish jarayonlarini raqamlashtirish.

Tarmoq korxonalarida quyidagi chora-tadbirlarni muntazam amalga oshirish hisobiga tovar-moddiy zahiralari qold'igini optimallashtirish va TMB aylanmasini jadalashtirish:

- Oylik buyurtmalarni haftalikka o'tkazish;
- Konteynerlar sig'imidan unumli foydalanish;
- Hajmi kichik yuklarni konsolidatsiya qilish;
- Optimal marshuratlarni tanlash orqali yuklarni tranzit vaqtlarini qisqartirish;
- Omborxonalardagi zahiralarni optimallashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi 307-son qarori bilan 2024 yilda bajarilishi belgilangan innovatsion loyihalarni kompaniya tizim korxonalarini tomonidan amalga oshirish.

Yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar

"Yashil energiya" MCHJ bilan hamkorlikda "O'zavtosanoat" AJning 10 ta korxonasida quyosh panellari o'rnatish ishlari rejalashtirilgan, shundan:

"UzAuto Motors" AJ – 3 600 kVt (shundan 1 500 kVt Xorazm filialida);

"UzAuto Motors Powertrain" – 330 kVt;

"O'z-Tong Hong Kompani" AJ QK – 200 kVt;

"Avto Climate Control" MChJ – 300 kVt;

"UzDongYang" QK – 300 kVt;

"UzSungwoo" MCHJ QK – 300 kVt;

"UzChasys" MCHJ QK – 300 kVt;

"UzAuto-Austem" MChJ QK – 370 kVt;

"UzSemyung" AJ QK – 500 kVt;

"Uz Koram" MChJ – 500 kVt;

Umumiy – 6 700 kVt

2022 yil 2 dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zavtosanoat" AJ korxonalarining 2024-yil uchun ishlab chiqqan energiya resurslarini tejash chora-tadbirlari natijasida tabiiy gazdan 1,2 mln kub metr, elektr energiyasidan 4,2 mln kVt.s, neft mahsulotlaridan 94,8 tonna iqtisod qilish ko'zda tutilgan.

Sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilish va raqamlashtirish.

Bugungi kunda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida 2022–2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida “O‘zavtosanoat” AJ tizimidagi 2 ta korxonaga “UzTong Hong Company” AJ QK va “Avto Climate Control” QK MCHJ da ERP tizimini joriy qilish loyihasi amalga oshirib kelinmoqda, ushbu loyixani amalga oshirishdan maqsad korxonaning ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirib inson omilini kamaytirish va biznes jarayonlarini raqamlashtirishdan iborat.

Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qarori PQ-162 bilan kuyidagi loyihalarni joriy qilish topshirig‘i belgilangan:

1. “UzAuto Motors” AJ da korxonaga hududidagi konteynerlarning harakati va hisobini olib borish jarayonlarini avtomatlashtirish. Ushbu topshiriq buyicha “UzAuto Motors” AJ ning dasturchilari tomonidan dastur ishlab chiqilmoqda.

2. “UzAuto Motors Powertrain” AJ da ma’lumotlarining chiqib ketishining oldini olish maqsadida “DLP” tizimini joriy qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

“UzAuto Motors” AJ tomonidan ishlab chiqarilgan yengil avtotransport vositalarini onlayn bron qilish va sotish jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek avtomobillarni sotishda shaffoflikni ta’minlash maqsadida yangi tizim ishlab chiqish rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunda onlayn Savdo tizimini yangilash bilan bog‘liq ishlar amalga oshirilmoqda.

“UzAuto Motors” AJ ning yig‘uv sexida ro‘y berayotgan liniyadagi to‘xtash jarayonlarini onlayn ro‘yxatga olish tizimini joriy qilish. Ushbu tizim liniyalardagi to‘xtash jarayonida inson omilini kamaytirish, raxbariyatga liniyalar to‘xtashi bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘z vaqtida (online) taqdim qilish maqsadida Line Stop dasturini ishlab chiqish loyixalarini amalga oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

III. Bozor va marketing rejasi

3.1 Ichki bozor faoliyati

“Uzavto Motors” AJ ichki bozorning dilerlik tarmog‘i faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha doimiy ish olib boradi.

Dilerlik tarmog‘ini rivojlantirish, dilerlik markazlarini optimallashtirish va dilerlik markazlari toifalarini ochish bo‘yicha yangi konsepsiya hamda talablarni tasdiqlangan. Dilerlik markazlari Chevrolet brendining D-2 standartiga mos ravishda qayta jixozlandi.

2023 yildan boshlab GEM platformasida yangi rusumli Onix avtomobili xaridorlarga yetkazish boshlandi. Hamda, Malibu, Equinox, Tahoe va Traverse rusumli avtomobillarni sotish hajmi ko‘paytirish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2023 yildan boshlab Chevrolet Malibu avtomobilini, yangi zamonaviy xavfsizlik uskunalari bilan jixozlangan, komplektatsiyasi sotuvi boshlangan.

2023 yil 4-choragidan boshlab yangi Chevrolet Captiva avtomobili sotuvi boshlandi.

B/C sedan va A/B/C Hatchback segmentlarida ko‘proq raqobatchilar paydo bo‘lishi kutilmoqda. Ushbu turdagi raqobatchilar ommaviy segmentdagi raqobatni oshiradi. B-segmentida (O‘zbekistonda ommaviy segment) bozor ulushini saqlab qolish uchun 2024-2025 yillarda hamyonbop Cobalt sedanini yangilash rejalashtirilgan. Face&Tail liftini amalga oshirish, shuningdek, rulda multimedia tizimini boshqarish tugmalarini qo‘shish, o‘rindiqlarni isitish, asboblar panelini, multimedia tizimini yangilash va zavoddan orqa kamera bilan jihozlash orqali mazkur avtomobillni komplektatsiyasini boyitish. Face-lift va Tail-lift nafaqat tashqi ko‘rinishni yangilaydi, balki avtomobilning joriy xususiyatlari ham yaxshilaydi (aerodinamika va avtomobil ichidan atrof ko‘rinishi).

“BYD Uzbekistan” MCHJ QK tomonidan 2023 yilda 9 ta rasmiy dilerlik markazlari o‘z ish faoliyatini boshlab, BYD Song Plus, Chazor, Han avtomobillarini sotuvi yo‘lga qoyilib, yil yakuni bilan 10 ming dona avtomobillarini sotuvi kutilmoqda.

“SamAvto” MCHJ QK mahsulotlarni ichki bozorda sotishni O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab joylashgan 35 ta dilerlik korxonalarini amalga oshiradi.

Iste‘molchilarni ehtiyojini ta‘minlash maqsadida respublika hududida 3 ta hududiy omborlar faoliyat ko‘rsatmoqda (Toshkent, Urganch va Farg‘ona viloyatlarida), ular Isuzu (Yaponiya) tomonidan tavsiya etilgan tizim va maxsus javonlar bilan jihozlangan.

“SamAvto” MCHJ QK zavodida, Samarqand avtomobilsozlik kolledji hududidagi maxsus jihozlangan o‘quv markazida va Samarqand shahridagi kasb-hunarga o‘qitish markazida (markaz KOICA bilan hamkorlikda tashkil etilgan) “SamAvto” MCHJ QK mutaxassislari tomonidan dilerlik markazlari uchun kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish ishlari olib borilmoqda.

Xar yili vakolatli xizmat ko‘rsatish stansiyalarining avtoullov mexaniklari o‘rtasida texnik musobaqalar o‘tkaziladi, uning davomida eng yaxshi texnik mutaxassislar aniqlanadi va avtoullovlarga texnik xizmat ko‘rsatish sohasida tajriba almashiladi. Musobaqada ishtirok etgan g‘oliblar Yaponiyada bo‘lib o‘tadigan xalqaro avtoullov mexaniklari tanlovida ishtirok etishlari mumkin.

Bundan tashqari, xaridorlarni jalb qilish uchun korxonada turli hil tadbirlar va aksiyalar amalga oshiradi. Aksiyalarni amalga oshirishda texnik xizmat ko‘rsatish standartlariga rioya etilishini nazorat qiluvchi yapon mutaxassislari ko‘magidan foydalaniladi.

3.2 Eksport bozorlaridagi faoliyati

“UzAvto Motors” AJ 2020 yil mart oyidan boshlab avtomobillar “CHEVROLET” brendi ostida MDH mamlakatlari va Afrika davlatlariga eksport qilinmoqda. Hozirgi kunda hamma xorijiy dilerlik tarmoqlar “CHEVROLET” tarmog‘iga o‘tgan.

Mahsulot tannarxini qisqartirishni amalga oshirish va bu orqali eksport narxlarini tartibga solish ishlarini davom ettirish rejalashtirilgan. Shu jumladan, “SariarkaAvtoprom” (Qozog‘iston)ga yuborilayotgan SKD to‘plamlari uchun ham Chevrolet Malibu, Chevrolet Damas/Labo, Chevrolet Cobalt, Chevrolet Tracker, Chevrolet Tahoe, Chevrolet Traverse, Chevrolet Equinox SKD to‘plamlari shaklida eksport qilinishi davom ettirish rejalashtirilgan.

2023 yilda “SariarkaAvtoprom” (Qozog‘iston) ga yangi Onix rusumidagi avtomobil CKD uslubida ishlab chiqarish yo‘lga qoyildi.

OOO “Azermash CP” (Ozarbayjon Respublikasi) ishlab chiqarish maydonlarida SKD to‘plamlari shaklida eksport qilinayotgan Chevrolet Cobalt, Chevrolet Damas/Labo, Chevrolet Malibu, Chevrolet Tracker, Chevrolet Lacetti, Chevrolet Equinox, Chevrolet Tahoe, Chevrolet Traverse avtomobillari bilan bir qatorda Chevrolet Onix avtomobilini yigish va bozorida sotish yo‘lga qoyildi.

Yangi eksport bozorlarini ochish bo‘yicha olib borilgan ishlar natijasida, 2022 yilda Livan davlatidagi IMPEX korxonasi bilan xamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Natijada ushbu davlatga Spark avtomobillarini eksport qilish yo‘lga qo‘yildi. Xamda, ushbu davlatga Cobalt avtomobilini eksport qilish istiqbollari o‘rganib chiqildi. Bundan tashqari Yaqin sharq va Afrika davlatlariga eksportini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha GM korporatsiyasi va mintaqadagi mahalliy korxonalar bilan muzokaralar olib borildi.

2023 yilda Armaniston bozorida yangi dilerlik markazi ochildi va sotish boshlandi.

2024 yilda Qirg‘iziston Respublikasida yengil avtomobillarni SKD uslubida yeg‘ish va sotish rejalashtirilgan.

2024 yilda Mongoliyaga Cobalt va Tracker avtomobillarini eksportini yo‘lga qoyish rejalashtirilgan.

2024 yilda Gruziyaga Cobalt, Onix va Tracker avtomobillarini eksportini yo‘lga qoyish rejalashtirilgan.

2024 yilda Qozog‘iston va Azerbajonda yangi Chevrolet Captiva avtomobilini SKD uslubida ishlab chiqarish va sotish rejalashtirilgan.

Bozorlarning rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish va mahalliyashtirish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar ham sotish hajmini ko‘paytirish maqsadida xalqaro avtomobil ko‘rgazmalari va taqdimotlarida ishtirok etish rejalashtirilgan.

Sotishdan keyingi servis xizmatlarini amalga oshirish maqsadida tashqi bozorlardagi distribyutor korxonalariga ehtiyot qismlarni yetkazib berish ishlari davom ettiriladi.

Eksport bozorlaridagi faoliyat natijalari va bozorlardagi holat to‘liq tahlili ilova qilinadi.

“BYD Uzbekistan” MCHJ QK Hozirgi kunda Tojikiston, Ozarbaijon va Gruziya respublikalarida dilerlik markazlari ochish bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda.

“SamAvto” MCHJ QK 2021 yildan korxonada ishlab chiqariladigan yuk avtomobillarining shassilari va SAZ HD50 avtobus komponentlarini OOO “Azermash Park” maydonida ishlab chiqarish uchun eksport qilish rejalashtirilmoqda.

Moldova Respublikasiga 2 dona yuk avtomobili hamda 1 dona avtobus eksport qilindi. Shuningdek, 2023-yil oxirigacha yana 2 ta yuk avtomobillarini jo'natish rejalashtirilgan.

2023-yilda SamAuto ISUZU pikaplarining yangi avlodini taqdim etdi, bu esa eksport bozorlarida boshqa yetakchi pikap ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlashish imkonini beradi.

2023 yilda Mongoliyaga va Moldovaga eksportni yo'lga qoyish ishlari olib borildi va 2024 yilda ma'zkur davlatlarga eksportni oshirish rejalashtirilgan.

2024 yilda Qirg'iziston Respublikasida SKD uslubida tijorat texnikasini yeg'ish va sotish boshlanadi.

2024 yilda tarmoq sanoat korxonalarida xorijiy avtomobil ishlab chiqaruvchilarning konveyerlariga avtomobil qismlarini eksport qilishni rejalashtirmoqda, jumladan:

“UzChasis” QK tomonidan 2024 yil “PSMA Rus” va Fransiyaning “PSA Automobiles SA” korxonalariga “Berlingo” modeli uchun orqa yoritish chiroqlarini eksport qilish rejalashtirilgan.

IV. Ko'rsatkichlar

“O'zavtosanoat” AJning 2024 yil uchun maqsadli prognoz ko'rsatkichlari hamda o'sish sur'atlari parametrlari 3 ilovada taqdim etilgan.

Ishlab chiqarish rejasi

2024 yilda yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini 410 ming donaga (o'sish sur'ati 2023 yilga nisbatan 105,1 foiz) yetkazish rejalashtirilgan.

Tarmoq korxonalarining mavjud quvvatlarida foydalanish darajasini oshirish ishlarini davom ettirish, jumladan yengil avtomobillar va mahalliy lashtirish korxonalarida quvvatlarni 500 ming donaga yetkazish.

2024 yil II yarim yilligida “Yangi energiya manbaalarida harakatlanuvchi avtomobillarni ishlab chiqarishni tashkil etish” loyihasini ishga tushirib, yil yakuni bilan 10 ming dona BYD elektromobil va gibrid avtomobillarini ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozlik korxonalarida 690,0 mlrd so'mlik 4 500 dona zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Buning hisobiga 2024 yil yakunida tarmoq va qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 72,2 trln. so'mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 foizga etishi kutilmoqda.

Investitsiya faoliyati

2024-2026 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlariga muvofiq jamiyat tarmoq korxonalari tomonidan 2024-2026 yillarda qiymati 452,1 million dollarga teng bo'lgan 5 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan. 2024 yilda ushbu loyihalar doirasida 150,3 mln. dollar o'zlashtirilishi rejalashtirilmoqda, jumladan:

1. Yangi tipdagi dvigatellarni ishlab chiqarish. Loyihada yangi ishlab chiqarilgan avtomobillar uchun "UZAuto Motors Powertrain" AJ da yangi dvigatellarni ishlab chiqarishni nazarda tutilgan.

2. "BYD" kompaniyasi yangi energiya manbalar yordamida harakatlanuvchi avtomobillarni ishlab chiqarish" loyihasini amalga oshirish.

3. "UZAuto Motors" AJ korxonalarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish.

4. Yangi presslash va payvandlash quvvatlarini tashkil etish.

5. "Chevrolet Cobalt modelini yangilash (Cobalt MCM) va ishlab chiqarish hayotini uzaytirish" loyihasini amalga oshirish.

Mahalliyashtirish

Mahalliyashtirish dasturi bo'yicha tarmoq korxonalari tomonidan 18 loyiha doirasida 19,0 trln. so'mlik maxsulot ishlab chiqarish rejalashtirilmoqda.

Sanoat Xabi xududida amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha:


- "Zamonaviy quyuv ishlab chiqarishini tashkil qilish va avtomobillarning cho'yan detallariga mexanik ishlov berish" loyihasi bo'yicha avtomobil cho'yan qismlariga mexanik ishlov berish liniyasi 2 chorakdan ommaviy maxsulot ishlab chiqarish boshlanishi rejalashtirilgan;

- "Kvangjin Avtosistems" MCHJ QKning ishlab chiqarish quvvatlarini Toshkent shahridan Sanoat Xabi xududiga ko'chirish va ommaviy ishlab chiqarish 1 chorak yakuniga qadar amalga oshirish rejalashtirilgan.


V. Samaradorlik ko'rsatkichlari.

"O'zavtosanoat" AJ korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish, Davlat ishtirokidagi korxonalar ijro etuvchi organi faoliyati samaradorligini baholash maqsadida jamiyat tomonidan 2024 yil uchun asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan bo'lib, 4 ilovada taqdim etiladi.

"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasi



**“O‘zavtosanoat” AJ
Tashkiliy tuzilmasi**



"O'zavtosanoat" AJning 2024 yil uchun maqsadli prognoz ko'rsatkichlari hamda o'sish sur'atlari parametrlari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2022 yil amalda	2023 yil				2024 yil prognoz	O'sish sur'ati, %
				prognoz	kutilishi	bajarilishi, %	o'sish sur'ati, %		
1	Mahsulot ishlab chiqarish hajmlari	mlrd so'm	49 834,3	62 187,7	62 190,9	100,0%	130,8%	72 199,1	108,7%
2	Asosiy nomenklatura:								
	- yengil avtomobillar	dona	327 639	400 000	390 000	97,5%	119,0%	410 000	105,1%
	- avtobuslar *	dona	1 357	918	918	100,0%	67,6%	920	100,2%
	- yuk avtomobillari *	dona	4 094	3 172	3 172	100,0%	77,5%	3 190	100,6%
	- elektromobillar va gibrid avtomobillari	dona						10 000	x
3	Investitsiyalarni o'zlashtirish	mln doll	199,3	115,0	130,3	113,3%	x	150,3	x
	loyihalar soni	soni	5	7	7	100,0%	x	5	x
4	Yangi ish o'rinlar yaratish	soni	4 186	2 000	4 200	210,0%	100,3%	2 000	47,6%

Izoh: * O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiyashtirishni oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" 168-sonli qaroriga muvofiq tarmoq tarkibidagi 17 ta korxonalarni ustav kapitalidagi ulushlari O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tasarrufiga o'tkazildi. Shu sababli mazkur korxonalar, jumladan "Uz Truck & Bus Motors" MCHJ QK va "Uzavto-Trailer" MCHJ joriy yil yanvar oyida tarmoq tarkibidan chiqarilgan

**"O'zavtosanoat" AJning 2024 yil uchun asosiy samaradorlik ko'rsatkichlar
REJASI**

№	Ko'rsatkichlar nomi	I chorak					I yarim yillik					9 oylik					2023 yil				
		ko'rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KITЭ	ko'rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KITЭ	ko'rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KITЭ	ko'rsatkich hajmi	reja	amalda	baj, %	KITЭ
	A	B	C	D	E	F=ExB/100	B	C	D	E	F=ExB/100	B	C	D	E	F=ExB/100	B	C	D	E	F=ExB/100
O'rnatilgan:																					
1.	Sof foyda rejasini bajarish (mln.so'm)	20	24 247				20	29 360				20	32 182				20	45 400			
2.	Aktivlar rentabelligi (foiz)	20	0,005				20	0,006				20	0,007				20	0,010			
3.	Qoplash koeffitsiyenti (to'lov qobiliyati)	20	12,301				20	12,796				20	13,287				20	13,580			
4.	Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	20	46,705				20	47,810				20	48,935				20	50,212			
5.	Dividend to'lovlarini rejaga asosan to'lanishi (mln.so'm) **/	10	график асосида				10	график асосида				10	график асосида				10	график асосида			
6.	Aksiyadorlarning investitsiyalari rentabelligi	10	0,011				10	0,014				10	0,015				10	0,021			
Jami		100,0					100,0					100,0					100,0				